



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 07 | pp. 9-15 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

FARG'ONA VODIYSIDA TURIZM RIVOJLANISHINING HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI



Maksumov Azizxon Nodir o'g'li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Farg'ona vodiysida turizm sohasi rivojlanishining hududiy differentsiatsiyasi va uning nazariy asoslariga bag'ishlangan. Maqolada O'zbekiston, MDH va jahon olimlarining turizmning hududiy-differensial xususiyatlariga oid nazariy qarashlari o'rganiladi. Shu bilan bir qatorda statistik ma'lumotlar asosida Farg'ona vodiysi viloyatlari (Andijon, Namangan, Farg'ona) bo'yicha turizm infratuzilmasi, xorijiy sayyohlar oqimi va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turizm rivojlanishining mintaqaviy farqlari, ularning sabablari va oqibatlari ko'rib chiqiladi.

Abstract: This article is dedicated to the regional differentiation of tourism development in the Fergana Valley and its theoretical foundations. The article examines the theoretical views of Uzbek, CIS, and international scholars on the territorial-differential characteristics of tourism. Furthermore, based on statistical data, it analyzes indicators of tourism infrastructure, foreign tourist flow, and economic efficiency for the provinces of the Fergana Valley (Andijan, Namangan, Fergana). Regional differences in tourism development, their causes, and consequences are also considered.

Аннотация: Данная статья посвящена региональной дифференциации развития сферы туризма в Ферганской долине и её теоретическим основам. В статье изучаются теоретические взгляды узбекских, стран СНГ и мировых учёных на территориально-дифференциальные особенности туризма. Наряду с этим, на основе статистических данных анализируются показатели туристической инфраструктуры, потока иностранных туристов и экономической эффективности по областям Ферганской долины (Андижанская, Наманганская, Ферганская). Также рассматриваются региональные различия в развитии туризма, их причины и последствия.

Kalit so'zlar: turizm, hududiy differentsiatsiya, Farg'ona vodiysi, mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy ta'sir, ekoturizm.

Keywords: tourism, regional differentiation, Fergana Valley, regional development, economic impact, ecotourism.

Ключевые слова: туризм, региональная дифференциация, Ферганская долина, региональное развитие, экономическое воздействие, экотуризм.

KIRISH

Turizm jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakatlar va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. O'zbekistonda

so'nggi yillarda turizm sohasida sezilarli islohotlar amalga oshirildi, bu esa turistlar oqimi va sohadan olinadigan daromadning oshishiga olib keldi.

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng muhim iqtisodiy va madaniy mintaqalaridan biri bo'lib, turizm sohasida yuqori salohiyatga ega hudud hisoblanadi. Ushbu mintaqada tarixiy yodgorliklar, boy madaniy meros va tabiiy resurslar bilan ajralib turadi. Biroq, turizm sohasining rivojlanishi mintaqadagi viloyatlar (Andijon, Namangan, Farg'ona) orasida bir xil emas, bu esa hududiy differensiatsiya masalasining dolzarb ekanligini anglatadi. Ushbu maqola Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanish darajasini, uning hududiy farqlarini va bu jarayonlarning nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, qiyoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning turizm rivojlanishining hududiy differensiatsiyasi yuzasidan qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Avvalombor, turizmning hududiy differensiatsiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish lozim. Turizmning hududiy differensiatsiyasini tahlil qilishda bir qator nazariy yondashuvlar qo'llaniladi. Jumladan, M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasiga ko'ra, hududlar o'ziga xos resurslari va innovatsiyalari orqali turistlarni jalb qilishi mumkin [Porter, 1990]. G. Kruch va J. Ritchining "Turistik hudud raqobatbardoshligi va barqarorligi modeli" esa turizmning barqaror rivojlanishi uchun resurslardan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlaydi [Crouch, 2003].

Shuningdek, mintaqaviy turizmning nazariy asoslarini o'rganishda geografik va iqtisodiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. **Geografik yondashuv** sayyohlar oqimi, infratuzilma va tabiiy-madaniy resurslarning joylashuvini tahlil qiladi. Ushbu yo'nalishda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan mashhur olim Kolin Maykl Holl hisoblanadi. U o'zining izlanishlarida turizmning geografik modellarini tahlil qilib, ularni mintaqaviy rivojlanishning muhim omili sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, turizm resurslar taqsimotida nomutanosiblikka olib kelishi mumkin, chunki sayyohlar oqimi asosan madaniy va tabiiy resurslarga bog'liq [Hall, 2005].

Iqtisodiy yondashuv esa turizmning mintaq iqtisodiyotiga ta'siri, xizmatlar eksporti va ish o'rinlarining yaratilishi jarayonlarini ko'rib chiqadi. Ushbu yondashuvning eng yirik vakillaridan biri Stiven Smit hisoblanadi. U o'zining ilmiy izlanishlarida turizmni iqtisodiy multiplikator sifatida tahlil qiladi va uning mintaq iqtisodiyotiga ta'sirini baholash uchun bir qancha empirik usullarni taklif etadi. Uning ta'kidlashicha, turizm xizmatlari eksporti mintaq iqtisodiyotining diversifikatsiyasiga xizmat qiladi, lekin bu jarayon mintaq ichidagi infratuzilma va marketing faoliyatiga bog'liq [Smith, 2010].

Hududiy differensiatsiya mintaq ichidagi iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma ko'rsatkichlarining farqli rivojlanish darajasini anglatadi [Harvey, 2006]. Turizm kontekstida bu konsepsiya turistlar oqimi, infratuzilma va iqtisodiy samaradorlikning hududlar bo'yicha taqsimlanishini o'rganishda qo'llaniladi. Farg'ona vodiysi misolida bu

farqlar viloyatlarning tarixiy-madaniy resurslari, transport infratuzilmasi va marketing faoliyati bilan bog'liq.

Shuningdek, Devid Xarvi hududiy differensiatsiyani kapitalning nomutanosib taqsimlanishi va mintaqaviy resurslarning turli darajada foydalanilishi bilan izohlaydi. Uning fikricha, mintaqaviy nomutanosiblik iqtisodiyotning muqarrar xususiyati bo'lib, turizm kabi sohalarda bu jarayon yanada ko'proq namoyon bo'ladi.

Hududiy differensiatsiya mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan yana bir olim Richard Batler o'zining "The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution" nomli maqolasida turizmning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, mintaqalar orasidagi farqlarni mahalliy resurslar va marketing faoliyati bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, turizmning rivojlanishi mintaqa ichidagi infratuzilma va tabiiy-madaniy resurslarga bog'liq bo'lib, bu nomutanosib rivojlanishga olib keladi [Butler, 1980].

Ushbu masala bo'yicha MDH davlatlari olimlaridan L.V. Vasileva, A.V. Postnikov, N.V. Zubreeva va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan. Rus olimi L.V. Vasileva mintaqaviy turizmni barqaror rivojlantirish uchun institutsional islohotlar va davlat-xususiy sheriklikning muhimligini alohida qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, turizm sohasidagi islohotlar mahalliy aholining faol ishtirokini talab qiladi [Василева, 2006].

MDH olimlaridan A.V. Postnikov turizmni mintaqaviy rivojlanishning muhim omili sifatida ko'rib chiqadi. Uning fikricha, turizm mintaqa ichidagi iqtisodiy nomutanosiblikni bartaraf etishda muhim vosita bo'lishi mumkin. Uning ta'kidlashicha, turizmning mintaqaviy ta'siri uning infratuzilma bilan ta'minlanishi va mahalliy resurslarning samarali foydalanilishiga bog'liq [Постников, 2018].

N.V. Zubreeva esa turizmning barqaror rivojlanishga xizmat qilishini ta'kidlab, mintaqaviy differensiatsiyaning sabablarini tabiiy va madaniy resurslarning nomutanosib taqsimlanishi bilan bog'laydi [Зубреева, 2020].

Ushbu masala yuzasidan mamlakatimiz olimlari tomonidan ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, M. Amonboyev turizm industriyasini rivojlantirishda mahalliy resurslar va marketing strategiyasining muhimligini ta'kidlab, turizmning mintaqaviy rivojlanishga ta'siri uning mahalliy iqtisodiyotga integratsiyalashuvi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatiga bog'liqligini keltirib o'tgan [Amonboyev, 2019].

Shuningdek, X.X. Xudoyqulov turizmning madaniy merosni saqlash va mintaqaviy brend yaratishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, O'zbekistonda turizmning rivojlanishi madaniy-tarixiy obyektlarning marketing faoliyati bilan mustahkamlanishi kerak [Xudoyqulov, 2022]. Sh.M. Mustafoev esa o'zining "Madaniy meros va turizm: O'zbekiston tajribasi" nomli ilmiy ishida Farg'ona vodiysining turizm salohiyatini tarixiy yodgorliklar va mahalliy an'analar bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanishi mintaqaviy brend yaratish va xorijiy sayyohlarni jalb qilishga qaratilgan marketing strategiyasiga bog'liq [Mustafoev, 2023].

O'zbekistonlik olimlardan A.A. Saidov Farg'ona vodiysidagi hududiy differensiatsiyani viloyatlarning tarixiy-madaniy resurslari va transport infratuzilmasi bilan bog'laydi. Uning fikricha, Farg'ona viloyatida turizmning yuqori salohiyati uning tarixiy obyektlari va yaxshi rivojlangan transport infratuzilmasi bilan bog'liq, Andijon va Namangan esa bu borada orqada qolmoqda [Saidov, 2021]. B.B. Karimov esa mintaqaviy

differentatsiyaning sabablarini marketing faoliyatining yetarli emasligi va mahalliy resurslarning samarasiz boshqarilishi bilan izohlaydi [Karimov, 2020].

Ko'rinib turibdiki, ushbu masala bo'yicha mamlakatimizda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kamchilikni tashkil etadi hamda ko'plab yangi ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Ma'lumki, bugungi kunda turizm sohasining eng muhim masalalaridan biri – bu turizm **barqarorlikni ta'minlash** hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan turizmning barqaror rivojlanishi konsepsiyasi so'nggi yillarda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu yo'nalishda tadqiqot olib boruvchi olimlar, jumladan, Devid Uiver va Laura Louton izlanishlarida barqaror turizmni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarning muvofiqlashuvi sifatida ta'riflaydi. Ularning fikricha, barqaror turizm mintaqaviy differentatsiyaning kamaytirishida muhim vosita bo'lishi mumkin, lekin bu mahalliy jamoalarning faol ishtiroki va davlat siyosatiga bog'liq [Weaver, 2006].

O'zbekistonda turizmning barqaror rivojlanishiga oid tadqiqotlarda Sh.M. Mustafoyev va X.X. Xudoyqulov mahalliy jamoalarning turizm faoliyatiga jalb qilinishi va madaniy merosning saqlanishiga e'tibor berishni taklif etadi. Ularning ta'kidlashicha, Farg'ona vodiysida barqaror turizmni rivojlantirish uchun madaniy-tarixiy obyektlarni muhofaza qilish va mahalliy aholining iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Hududlarda turizm sohasi rivojlanishining differensial xususiyatlarini aniqlashda tanlangan hududlarda turizm sohasi rivojlanishining joriy holati tahlili muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 10 mln 285 ming nafarga yetdi, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 55,2% ga oshganligi bildiradi.

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi hududlar bo'yicha bir xil deb bo'lmaydi. Jumladan, Samarqand, Buxoro va Xorazm kabi tarixiy hududlar turistlar oqimi va daromad bo'yicha yetakchi bo'lsa, Farg'ona vodiysi, Qoraqalpog'iston va Surxondaryo kabi mintaqalarda turizm sohasi ularga nisbatan ortda qolmoqda. Misol uchun, 2024-yilda birgina Samarqand viloyatiga 2,76 million turist tashrif buyurgan bo'lsa, Farg'ona vodiysining uch viloyatiga jami 1,6 million turist tashrif buyurgan. Turizmdan olinadigan daromadning 60% ga yaqini Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa hududlar o'rtasidagi farq naqadar katta ekanligini ko'rsatadi.

Farg'ona vodiysi viloyatlari (Andijon, Namangan, Farg'ona) O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar oqimining muayyan qismini qabul qildi, biroq ularning ulushi mintaqada ham bir xil emas. Ushbu farqlarning sabablari viloyatlarning tarixiy-madaniy resurslari, infratuzilmasi va marketing faoliyati bilan bog'liq.

Farg'ona vodiysi o'ziga xos tarixiy-madaniy va tabiiy resurslarga ega. Bu mintaqada Ipak yo'lining muhim markazlaridan biri bo'lib, Farg'ona viloyatidagi Rishton kulolligi, Marg'ilon atlas va Andijonning milliy taomlari turistlar uchun jalb qiluvchi omillardir. Biroq, infratuzilma yetishmasligi, marketing strategiyasining zaifligi va malakali kadrlar kamligi turizm rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda.

Jumladan:

Andijon viloyatida 2024-yilda xorijiy sayyohlar soni o'tgan yilga nisbatan sezilarli oshgan, biroq umumiy oqimda ulushi nisbatan past. Bu viloyatda madaniy-tarixiy obyektlar sonining cheklanganligi va marketing faoliyatining yetarlicha kuchli emasligi bilan bog'liq. Masalan, Andijondagi Bobur muzeyi va Devonboy masjidi kabi obyektlar ma'lum darajada sayyohlarni jalb qiladi, lekin ularning xorijiy bozorlarda targ'ib qilinishi yetarli emas.

Namangan viloyatida sayyohlar oqimi 2024-yilda 634 ming nafarga yetgan, bu 2023-yilga nisbatan 3 barobarga oshgan. Bu viloyatda tarixiy obyektlar, xususan, Mulla Qirg'iz madrasasi va ziyorat turizmiga qiziqish ortmoqda. Biroq, Namanganda infratuzilma, ayniqsa, axborot markazlarining samarasizligi sayyohlar oqimining tezroq o'sishiga to'sqinlik qilmoqda.

Farg'ona viloyati mintaqaning turizm markazi sifatida ajralib turadi. 2024-yilda bu viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar soni 475,8 ming nafarni tashkil etgan va 2023-yilga nisbatan 10 %ga o'sgan. Farg'onadagi Rishton kulolchiligi, Marg'ilon ipak fabrikasi va Xudoyorxon saroyi kabi obyektlar xorijiy sayyohlarning asosiy diqqat markazidir. Bu viloyatda transport infratuzilmasini yanada yaxshilash va marketing faoliyatini rivojlantirish ushbu ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanishi viloyatlar orasida nomutanosibdir. Farg'ona viloyati turistlar oqimi, infratuzilma va eksport ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi bo'lib, bu uning tarixiy-madaniy resurslari va yaxshi rivojlangan transport infratuzilmasi bilan bog'liq. Namangan viloyati Wi-Fi nuqtalari va yo'l ko'rsatkichlari soni bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega, biroq axborot markazlarining samarasizligi va marketing faoliyatining yetarli emasligi uning salohiyatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Andijon viloyati esa tarixiy obyektlarning kamligi va marketing strategiyasining zaifligi sababli orqada qolmoqda.

Farg'ona vodiysida turizm rivojlanishining hududiy differensiatsiyasi bir qator omillar bilan bog'liq. Jumladan:

1. **Tarixiy-madaniy resurslarning taqsimlanishi:** Farg'ona viloyatida tarixiy obyektlar (masalan, Rishton kulolchiligi, Marg'ilon ipak fabrikasi) ko'proq joylashgan, bu esa turistlarni jalb qilishda muhim omildir. Andijon va Namanganda bunday obyektlar kamroq.

2. **Turizm infratuzilmasining rivojlanishi:** Namangan viloyatida Wi-Fi nuqtalari va yo'l ko'rsatkichlari soni yuqori, biroq axborot markazlarining samarasizligi muammo yaratadi. Farg'onada esa infratuzilma bir muncha mutanosib rivojlangan.

3. **Marketing va brending:** Farg'ona viloyati mintaqaviy turizm brendi sifatida ko'proq tanilgan, Andijon va Namangan esa bu borada orqada qolmoqda.

4. **Transport infratuzilmasi:** Farg'ona viloyatida transport infratuzilmasi (aeroport, temir yo'l vokzali) yaxshiroq rivojlangan, bu sayyohlar oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Izlanishlar natijasida **xulosa qilish mumkinki**, Farg'ona vodiysi O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega, ammo hududiy differensiatsiya va infratuzilma muammolari uning to'liq amalga oshirilishiga to'siq bo'lmoqda. Tadqiqot

natijalari shuni ko'rsatdiki, mintaqada ekoturizm, agroturizm va etnoturizmni rivojlantirish orqali turistlar oqimini oshirish imkoniyatlari mavjud. Davlat tomonidan mahalliy aholini jalb qilish, xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish va ilmiy asoslangan marketing strategiyasini kuchaytirish zarur.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagilar taklif etiladi:

1. Farg'ona vodiysida turizm sohasini rivojlantirishning differensial xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni son va sifat jihatidan oshirish.
2. Farg'ona vodiysining turizm salohiyatini oshirish uchun yagona mintaqaviy brend yaratish va xorijiy bozorlarda targ'ib qilish.
3. Farg'ona vodiysida ekoturizm va agroturizmni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish hamda mintaqaning tarixiy-madaniy merosini xalqaro bozorda targ'ib qilish uchun onlayn platformalar yaratish.
4. Xalqaro standartlarga muvofiq mehmonxonalar va transport infratuzilmasini yaratish rejasini ishlab chiqish hamda amalga oshirish.
5. Mintaqa ichidagi turizm xizmatlari eksporti va turistlar oqimi bo'yicha statistik ma'lumotlarni yuritish va tahlil qilish tizimini ishlab chiqish.
6. Mahalliy aholi uchun turizm sohasida ta'lim dasturlarini joriy qilish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press. 1990.
2. Crouch G. I., Ritchie J. R. B. The competitive destination: A sustainability perspective. *Tourism Management*, 2003. 24(1), 1-14.
3. Hall C. M. Tourism: Rethinking the Social Science of Mobility. Pearson Education. 2005.
4. Smith S. L. J. Practical Tourism Research. CABI. 2010.
5. Василева Л. В. Организационно-экономический механизм обеспечения устойчивого развития туризма в регионе. Автореферат. Санкт-Петербург. 2006.
6. Постников А.В. Региональный туризм: экономические и географические аспекты. Москва: Изд-во МГУ. 2018.
7. Зубреева Н.В. Туризм как фактор устойчивого развития регионов. Санкт-Петербург: СПбГУ. 2020.
8. Амонбоев М., Халилов С. Туризм индустрияси ривожланишининг асосий йўналишлари ва истикболлари. "Иқтисодиёт ва инновациялар" электрон журнали, Тошкент. 2019.
9. Худойкулов Х.Х. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришнинг иқтисодий асослари. Тошкент: Иқтисодиёт ва молия. 2022.
10. Мустафоев Ш.М. Маданий мерос ва туризм: Ўзбекистон тажрибаси. Самарқанд: СамДУ. 2023.
11. Harvey D. Spaces of Global Capitalism: Towards a Theory of Uneven Geographical Development. Verso. 2006.
12. Butler R. W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution. *Canadian Geographer*. 1980.
13. Gunn C. A. Tourism Planning: Basics, Concepts, Cases. Taylor & Francis. 1994.
14. Weaver D., Lawton L. Sustainable Tourism: Theory and Practice. Elsevier. 2006.

15. Sharpley R. Tourism Development and the Environment: Beyond Sustainability? Earthscan. 2009.
16. Саидов А.А. Фарғона водийсида туризм инфратузилмасини ривожлантириш. Наманган: НамДУ. 2021.
17. Каримов Б.Б. Туризм географияси: назарий ва амалий жиҳатлар. Тошкент: Ўзбекистон. 2020.
18. Tosun C. Limits to Community Participation in the Tourism Development Process. Tourism Management. 2000.
19. World Tourism Organization, UNWTO Tourism Highlights. Madrid: UNWTO. 2024.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

